

**Qaraqalpog'iston sharoitida yeryong'oq o'simligining jahon kolleksiyasini  
namunalarni olishni o'rganish**

**Jumaboyeva Ozodaxon Muratboyevna**

*O'simchunoslik (Ekinlar guruhi bo'yicha)*

*2-kurs magistr*

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

**Annotatsiya:** Dukkakdoshlar orasida qisman yarim buta, buta va ko'p yillik uchraydi. Bu oila vakillarining ildizi oq ildiz va ildiz meva. Ildizida tugunaklar deb nomlanadigan o'simtalar hosil bo'ladi. Tugunaklar shu o'simliklar ildizida yashaydigan va havodagi erkin azotni o'zlashtiradigan bakteriyalarning faoliyati natijasida hosil bo'ladi. Poyalari tik o'suvchi, ilashuvchi, o'raluvchi yoki yotib o'suvchi bo'ladi. Barglari kopincha murakkab (uch bargchali, patsimon yoki panjasimon) ba'zan oddiy yoki yonbargli, poyada ketma-ket ornashgan.

**Ka'lit so'zlar:** Barg, murakkab, o'suvchi, poya, namuna

Dukkakdoshlar oilasi yer sharining deyarli barcha qismida tarqalgan 400 turkumga oid 12000ga yaqin tur o'simlik kiradi. Respublikamizda Dukkakdoshlarga oid 57 turkumga mansub 470 dan ortiq tur o'simlik o'sadi.

Bu oila vakillarining ko'pchiligi bir, eki va ko'p yillik o'tlardan iborat. Dukkakdoshlar orasida qisman yarim buta, buta va daraxat uchraydi. Bu oila vakillarining ildizi oqildiz va ildizmeva. Poyalari tik o'suvchi, ilashuvchi, o'raluvchi, yoki yotib o'suvchi bo'ladi. Barglari kopincha murakkab (uch yaproqchali, pasimon yoki panjasimon) ba'zan oddiy, hamisha yonbargli, poyada ketma-ket ornashgan. Changchilari 10 dona, ulardan 9 tasining iplari bir-biri bilan qo'shilib ketgan, o'ninchisi esa erkin, urug'chisi bitta, bitta urug'chi bargdan hosil bo'lgan.



1-surat. *Arachis L* (Fabaceae) tashqi korishi.

Mevasi dukkak, bitta urug'chi bargdan hosil bo'lgan: bir uyli, ko'p urug'li, ko'pincha qorin va orqa choklaridan pallaga bo'linib ochiladi: ba'zan ochilmasdan bo'laklarga bo'linadi yoki bo'linmaydigan bir urug'li, yong'oqsimon, moyli yoki quruq meva.(1) Dukkakdoshlarga mansub, Respublikamizdagi o'simliklardan biri yer

yong'oq (*Arachis hypogaeae* L.)dir.Yeryong'oq (*Arachis hypogaea* L.) Fabaceae oilasiga mansub bo'lib, bu oila o'z navbatida 70 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Shundan faqat bitta turi *Arachis hypogaea* L. madaniylashtirilgan bo'lib, xalq xo'jaligida keng foydalaniladi. Madaniy yeryong'oqning ikkita (*Hypogaea* va *Fastirgiata* kenja turlari bo'lib, ular o'z navbatida *Hypogaea* (*hypogaea hirsuta*), *fastirgiata* (*fastirgiata, vulgaris, peruviana, aequatoriana*) botanik nav guruhlariga bo'linadi.Yeryong'oq issiqsevar, namsevar, yorug'sevar va qisqa kun o'simligi [6]. Yeryong'oqning ildizi o'q ildiz,tuproqqa chuqur kirib boradi, azot to'plovchi tugunaklar hosil qiladi. (2, 5) Poyasi o'tsimon, balandligi 50-60sm, shoxlangan,tik,yon shoxlari yer bag'irlab o'sadi. Ba'zi turlarida (asosan tik o'suvchanlarda) antotsian (siyohrang) rang beruvchi moddasi bor.Antotsianli bo'lganlarning poyalari boshqalarnikiga nisbatan yog'ochsimon. Bu o'simliklarda turlarga ko'ra yon poyalar yoyiq, qiya vatic shaklda o'sishi mumkin. Yeryong'oq poyalari endi o'sayotgan paytida burchakliva yassidir, rivojlanganida esa poyalar yumaloqlashadi. Poya rangi, yashil va to'q yashil orasida o'zgarib turadi, ammo ba'zi turlarida tuk mavjud. Bargi murakkab, juft patsimon,yoki teskari tuxumsimon shaklda har bir barg qo'ltig'ida gul to'plam(shingil) joylashgan. Barglar, yorug'likka va qurg'oqchilikka qarshi chidamli hisoblanib, kechqurunlari va qurg'oqchilik paytida qarama-qarshi shaklda yopiladi. Barglarning shakllari uzun-ovalsimon. Barg ranglari poyalari kabi turiga bog'liq bo'lib, och yashil rangdan to'q yashil rangga o'zgaradi. Urug'ida moy miqdori ko'p bo'lib, o'simlik moyi olish uchun parvarishlangan turlarga mansub navlarda barglar yirik va och yashil rangda bo'lishi bilan urug'idan oziq-ovqat sanoatida foydalaniladigan navlardan farqlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. X.N.Atabaeva, J.B. Xudoyqulov O'simlikshunoslik Toshkent (2018 yil)
2. X.Atabaeva, O.Qodirxo'jaev O'simlikshunoslik (T.Yangi asr avlodi). (2006-yil)
3. Zakirov, D. Madaminova. 2020-yil. Biologiya va ekologiya bilimini rivojlantirish.